



## 2018 yil yanvar-oktabr oylarida Farg`ona viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


### RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **10 010,5** mlrd.so`mni, osish **7,7%** ni tashkil etdi
- Iste`mol tovarlari ishlab chiqarishning o`sish sur`ati – **2,5 %**
- Iste`mol tovarlarining jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi – **38,1%**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **35,5%**
- Faoliyat ko`rsatayotgan sanoat korxonalari soni – **6129** birlikni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2018 yilning yanvar-oktabr oyida viloyat korxonalari tomonidan 10010,5 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,7 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'shishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 7,4 % ga, tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning - 15,5 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 13,4 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning - 13,5 % ga o'sishi hisoblanadi.

**2018 yilning yanvar-oktabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, foizda, jami sanoatdagi ulushi.**



■ Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o'sish sur'ati - 115,5% foiz)

■ Ishlab chiqaradigan sanoat (o'sish sur'ati - 107,4 % foiz)

■ Elektr, gaz, bug` bilan ta`minlash va havoni konditsiyalash (o'sish sur'ati - 113,4 % foiz)

■ Suv bilan ta`minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish (o'sish sur'ati - 113,5 % foiz)

### ***Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.***



Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 25,8 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ni tashkil etdi.

Tog'-kon sanoatida tog'-kon sanoati bilan bog`liq boshqa faoliyat turi hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan – 15,6 % ga, ko`mir qazib olish sanoati sohasida - 4,4 % ga oshganligini kuzatish mumkin.



### **Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).**

2018 yilning yanvar-oktab roylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 9527,2 mlrd.so`mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 95,2 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog`ining hajmi 4,7 mlrd.so`mni, (o`tgan yilning mos davriga nisbatan o`sish sur`ati -100,0%), o`rta yuqori texnologiyali – 1199,9 mlrd.so`mni, (106,6%), o`rta quyi texnologiyali – 3477,6 mlrd.so`mni, (118,2%) va quyi texnologiyali – 4844,9 mlrd.so`mni, (101,4%) tashkil etdi.

#### **Yanvar-oktabroylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo`yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi**





O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida o'tgan yilning mos davriga nisbatan ichimliklar ishlab chiqarish 9,3 % ga, to`qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 6,3 % ga, terini qayta ishlash 16,6 % ga, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish 15,8 % ga, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarish 15,7 % ga, mebel ishlab chiqarish 18,2 % ga, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish 52,8 % ga, rezina va plastmassa buyumlari ishlab chiqarish 15,3 % ga oshganligini va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish, kiyim ishlab chiqarish,hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayganligini kuzatish mumkin.

**Yanvar- oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2017 yilda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2018 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, foizda
<b>O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.</b>			
12,1		15,2	125,4
<b>Paxta tolasi, ming t.</b>			
50,0		53,6	107,3

2017 yilda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2018 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, foizda
<b>Avtomobil benzini, ming t.</b>			
253,0		380,2	150,3
<b>Dizel yoqilg`isi, ming t.</b>			
291,3		415,2	142,5
<b>Amoniy nitrat, ming t. azot</b>			
100,6		112,6	111,9
<b>Superfosfat ming t. P2O5</b>			
12,0		14,1	116,7
<b>Portlandsement, ming t.</b>			
849,4		813,0	95,7
<b>Temir beton mahsulotlari, ming t.</b>			
21,8		30,3	138,8

### ***Elektr, gaz, bug` bilan ta`minlash va havoni konditsiyalash.***

Elektr, gaz, bug' bilan ta`minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 397,5 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,9 % ni) tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-oktabr oylarida sanoatning mazkur tarmog'i o'tgan yilning mos davriga nisbatan 13,4 % ga oshganligi kuzatildi.



### ***Suv bilan ta`minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.***



Suv bilan ta`minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 60,0 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ni) tashkil etdi.


2018 yilning yanvar-oktabr oylarida sanoatning mazkur tarmog'i o'tgan yilning mos davriga nisbatan 13,5 % ga oshganligi kuzatildi.



## **2018 yilning yanvar-oktabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi.**

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 3811,3 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 2,5 % ga o'sishi ta'minladi, jami sanoatdag'i ulushi esa 38,1 % ni tashkil etdi.


### ***2018 yilning yanvar-oktabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari***



### ***Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.***


Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Farg`ona shahar (viloyat ishlab chiqarish hajmining 37,2 % ulushini), Qo`qon shahar (viloyat ishlab chiqarish hajmining 13,8% ulushini), Quvasoy shahar (viloyat ishlab chiqarish hajmining 7,3% ulushini), Marg`ilon shahar (viloyat ishlab chiqarish hajmining 4,3% ulushini), Toshloq tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 11,8% ulushini), Dang`ara tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 4,4% ulushini), O`zbekiston tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 2,6% ulushini), Quva tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 3,2% ulushini), Buvayda tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 2,1% ulushini), Beshariq tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,9% ulushini), Bog`dod tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 2,2% ulushini), Oltiariq tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,5% ulushini), Farg`ona tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,5% ulushini), Rishton tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,8% ulushini), Uchko`prik tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,1% ulushini), Qo`shtepa tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,0% ulushini), So`x, Yozyovon, Furqat tumanlari (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,0% dan kam ulushini) hissasiga to`g`ri kelmoqda.

**2018 yil yanvar-oktabr oylarida hududlar bo'yicha sanoat ishlab  
chiqarilishining hajmlari va o'sish sur'atlari**  
*(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, foizda)*



### **Hududlarning iste`mol tovarlari ishlab chiqarishi.**

Viloyat iste`mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi Farg`ona shahar 774,8 mlrd.so`m, Qo`qon shahar 644,4 mlrd.so`m, Quvasoy shahar 161,8 mlrd.so`m, Marg`ilon shahar 357,8 mlrd.so`m, Toshloq tumani 147,3 mlrd.so`m, Dang`ara tumani 123,5 mlrd.so`m, O`zbekiston tumani 159,0 mlrd.so`m, Quva tumani 228,5 mlrd.so`m, Buvayda tumani 88,1 mlrd.so`m, Beshariq tumani 173,6 mlrd.so`m, Bog`dod tumani 161,6 mlrd.so`m, Oltiariq tumanlari 143,8% mlrd.so`m, Farg`ona tumani 113,5 mlrd.so`m, Rishton tumani 158,4 mlrd.so`m, Yozyovon tumani 72,2 mlrd.so`m, Qo`shtepa tumani 90,8 mlrd.so`m, So`x tumani 47,4 mlrd.so`m, Uchko`prik tumani 106,0 mlrd.so`m, Furqat tumani 58,8 mlrd.so`mga, to`g`ri keldi.




**Farg`ona viloyatining 2018 yil yanvar-oktabr oylarida sanoat mahsulotlari hamda xalq iste`mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi**

№	Shaharlar va tumanlar nomi	2018 yil yanvar-oktabr sanoat ishlab chiqarilishi		2018 yil yanvar-oktabr aholi jon boshiga	2018 yil yanvar-oktabr xalq iste`mol tovarlari		2018 yil yanvar- oktabr aholi jon boshiga
		mlrd.so`m	o`sish, %		ming.so`m	mlrd.so`m	
1	Marg`ilon sh.	427,2	118,7	1862,3	357,8	104,9	1559,8
2	Farg`on ash.	3723,5	119,1	13288,6	774,8	101,8	2765,2
3	Quvasoy sh.	735,1	103,1	8095,8	161,8	102,6	1781,8
4	Qo`qon sh.	1380,9	104,2	5597,5	644,4	108,5	2611,9
5	Bog`dod t.	217,9	102,2	1051,3	161,6	106,8	779,6
6	Beshariq t.	192,8	112,3	874,5	173,6	104,8	787,5
7	Buvayda t.	212,6	114,6	967,8	88,1	107	401,1
8	Dang`ara t.	445,4	117,4	2659,3	123,5	104,6	737,1
9	Yozyovon t.	88,9	113,2	833,6	72,2	101,8	677,4
10	Oltiariq t.	154,7	110,4	757,3	143,8	103,6	703,9
11	Qo`shtepa t.	101,7	102,0	554,4	90,8	102,5	495,4
12	Rishton t.	176,1	104,2	902,0	158,4	101,7	811,3
13	So`x t.	52,1	101,5	693,4	47,4	102,5	629,9
14	Toshloq t.	1184,9	116,1	6082,6	147,3	104,6	756,2
15	Uchko`prik t.	113,5	100,2	515,4	106,0	103,1	481,2
16	Farg`ona t.	148,9	114,1	722,9	113,5	102,4	551,2
17	Furqat t.	71,7	100,4	626,3	58,8	102,2	513,2
18	O`zbekiston t.	265,2	104,1	1150,1	159,0	103,2	689,6
19	Quva t.	317,2	102,1	1269,5	228,5	105,9	914,2
<b>Viloyat bo`yicha</b>		<b>10010,5</b>	<b>107,7</b>	<b>2748,0</b>	<b>3811,3</b>	<b>102,5</b>	<b>1046,2</b>

## **Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.**

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 104,4 % ga oshishini ta'minladi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 35,5 % tashkil etmoqda.

### **2018 yilning yanvar-oktabr KEoylarida hududlar bo`yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %**




## Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.

Bugungi kunda viloyatda 6129 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 1176 tasi Qo`qon shahri, 809 tasi Marg`ilon shahri, 792 tasi Farg`ona shahri, 431 tasi Uchko`prik tumani, 384 tasi O`zbekiston tumani, 322 tasi Dang`ara tumani, 283 tasi Buvayda tumani, 231 tasi Toshloq tumani, 224 tasi Quva tumani, 193 tasi Bog`dod tumani, 201 tasi Oltiariq tumani, 170 tasi Qo`shtepa tumani, 164 tasi Rishton tumani, 151 tasi Farg`ona tumani, 150 tasi Quvasoy shahri, 121 tasi Yozyovon tumani, 118 tasi Furqat tumani, 107 tasi Beshariq tumani, 102 tasi So`x tumaniga to`g`ri keladi.

Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatda 993 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 146 tasi Qo`qon shahri, 97 tasi Marg`ilon shahri, 119 tasi Farg`ona shahri, 74 tasi Uchko`prik tumani, 64 tasi O`zbekiston tumani, 33 tasi Dang`ara tumani, 70 tasi Buvayda tumani, 37 tasi Toshloq tumani, 41 tasi Quva tumani, 33 tasi Bog`dod tumani, 56 tasi Oltiariq tumani, 23 tasi Qo`shtepa tumani, 35 tasi Rishton tumani, 29 tasi Farg`ona tumani, 27 tasi Quvasoy shahri, 19 tasi Yozyovon tumani, 28 tasi Furqat tumani, 37 tasi Beshariq tumani, 25 tasi So`x tumaniga to`g`ri keladi.

**Farg`ona viloyatida faoliyat ko`rsatayotgan hamda yanvar-oktabr oylari  
davomida yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlikda**



**Farg`ona viloyat statistika boshqarmasining  
Sanoat statistikasi bo`limi**

Nashr uchun mas'ul:

Aloqa telefonи:

F.Yakubov

(0371) 230-87-19